

**DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA  
SOLIQLARNING TUTGAN O‘RNI**

**THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF STATE BUDGET  
REVENUES**

**Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich**

*Fan va texnologiyalar universiteti.*

*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”*

*kafedrasi o‘qituvchisi.*

Email: [traxmonqulov@inbox.ru](mailto:traxmonqulov@inbox.ru)

**Xushvaqtova Barchinoy**

*Fan va texnologiyalar universiteti*

*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”*

*yo‘nalishi 3 kurs talabasi*

Email: [barchinoyyxushvaqtova@gmail.com](mailto:barchinoyyxushvaqtova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o‘rni tahlil qilingan. Soliq tushumlarining davlat moliyaviy barqarorligidagi ahamiyati, ularning tarkibi va dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston byudjet tizimidagi mavjud muammolar, soliq siyosatini isloh qilish zaruriyati va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini yanada samarali yuritish hamda byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar** davlat byudjeti, soliq tizimi, soliq daromadlari, fiskal siyosat, byudjet barqarorligi

**Abstract.** This article analyzes the role of taxes in the formation of state budget revenues. The significance of tax revenues in ensuring fiscal stability, their composition, and dynamics have been examined using statistical data. Furthermore, current challenges in Uzbekistan’s budget system, the need for tax policy reforms, and proposals based on international best practices have been presented. The results of the study can contribute to enhancing tax policy effectiveness and increasing budget revenues.

**Keywords.** *state budget, tax system, tax revenues, fiscal policy, budget stability*

### **Kirish (Introduction)**

Mamlakat iqtisodiyotini soliqlarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilayotgan soliq imtiyozlari mamlakatimizda tadbirkorlik salohiyatini yanada oshiribgina qolmay, xalqimizga sifatli, qulay va hech qanday muammolarsiz mahsulotlar yetkazilib berilishini ta’minlayapti. O‘zbekiston Respublikasining byudjet-soliq siyosati endilikda jahon andozalariga har tomonlama to‘g‘ri keluvchi raqobatli bozor munosabatlarini yo‘lga qo‘ya oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish orqali qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik hamda tadbirkorlarga ko‘proq qulaylik berish orqali aholiga yengilliklar, jumladan, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlar va g‘ovlarni bartaraf etishga erishish hamda aholi bandligini ta’minlash va ularning faoliyatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda soliqlar orqali rag‘batlantirish byudjet-soliq siyosatining muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu ilmiy ishda, O‘zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatida bo‘layotgan o‘zgarishlar, byudjet-soliq siyosati yutuqlarlari va kamchiliklari, foyda solig‘i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining o‘zgarishlari keltirilgan. Byudjet-soliq siyosatida bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida xufyona pul aylanmasi, soliqlardan qochish va soliqlarni kamaytirib ko‘rsatish holatlari o‘rganib chiqdik. Byudjet-soliq siyosati natijasida davlat budjetiga tushayotgan tushumlar o‘zgarishi foyda solig‘i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i natijalari orqali tahlil qildik. Bundan tashqari foyda solig‘i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq turlarining oxirgi besh yildagi davlat budjetidagi ulushi qanchani tashkil etganligi va berilayotgan imtiyozlarning iqtisodiyotimizga tasiri chuqur tahlil qildik. Olingan ma’lumotlar asosida xulosalar va yechimlar ishlab chiqdik.

### **Adabiyotlar sharhi (Literature review)**

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida soliqlarning tutgan o‘rni yuzasidan bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib

borilgan. Jumladan, A. Laffer (1974) soliq stavkalari va byudjet tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni Laffer egri chizig‘i orqali izohlagan. Unga ko‘ra, haddan tashqari yuqori soliq stavkalari byudjet daromadlarini kamaytirishi mumkin. Bu nazariya byudjet-soliq siyosatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

M. Musgrave va R. Musgrave (1989) soliqlarni nafaqat daromad shakllantiruvchi vosita, balki iqtisodiyotni tartibga soluvchi instrument sifatida ko‘rib chiqadi. Ularning fikricha, byudjet-soliq siyosati orqali daromadlar tengsizligini kamaytirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish mumkin.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar, jumladan, A. Jo‘rayev, S. Toshpulatov va boshqalar tomonidan ham soliqlarning fiskal va ijtimoiy funksiyalari chuqur o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida ayniqsa, byudjet-soliq siyosatini isloh qilish, soliq bazasini kengaytirish va soliq yuki balansini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunlar, Moliya vazirligi statistik hisobotlari va Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari adabiyotlar tahlilining asosiy empirik manbalaridan biri hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi (Methods)**

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining byudjet-soliq siyosati metodologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy asarlari o‘rganildi. Mavzu doirasida avval o‘rganilgan tadqiqotlarni o‘rganib, tahlil qilgan holda biz o‘rganishimiz, yechim topishimiz kerak bo‘lgan savollarni shakllantirib oldik. Endi mana shu savollar asosida Davlat Soliq Qo‘mitasi tomonidan xar yili berib boriladigan statistik ma‘lumotlar asosida ma‘lumotlar yig‘amiz. Yig‘ilgan ma‘lumotlarni tanlagan tadqiqot usullarimiz hamda tahliliy uslublarimizdan foydalanib chuqur tahlilini amalga oshiramiz. Tahlil qilib, olingan natija hamda yechimlarimizdan kelib chiqib xulosa qilamiz. Ushbu xulosalarimiz asosida Davlat Soliq Qo‘mitasining byudjet-soliq siyosatini amalda joriy etish bo‘yicha amaliy hamda nazariy amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqiladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi (Analysis and results)**

Soliqlar davlat hamda mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Byudjetning xarajatlar qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta‘sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Soliqlar davlatning muayyan davrlarda aniq maqsadga qaratilgan

iqtisodiyot soha faoliyatida, davlat budjeti daromadining shakllanishini ta'minlashda hamda iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solishda va boshqarishda alohida ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarali byudjet-soliq siyosati hamda uning iqtisodiyot taraqqiyoti uchun muhim mexanizm ekanligi, shuningdek, byudjet-soliq siyosatidagi islohotlarning jadal rivojlanib borishiga, soliq sohasiga doir soliq sohasi amaliyotidagi tizimli o'zgarishlarning aniq baholashini belgilab beradi. Shu jumladan, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishlarning hozirgi bosqichida yangi talablar asosida davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda soliqlar ta'sirchanligini oshirish masalalarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Soliqlarning davlat byudjetini tushumini ko'paytirishdan tashqari Davlatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda ham asosiy rol o'ynaydi. Qadim zamonlarda ham ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar hamda jarayonni tartibga solishda soliqlardan foydalanib kelingan va hatto davlatlarning shakllanishida ham soliqlarning o'rni bo'lgan. Chunki davlatlarning shakllanishini mukammal, barqaror bo'lmagan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlariga tayanilgan. Shuningdek davlatning paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida moliyaviy hamda iqtisodiy munosabatlarini jonlantirishda davlatning hukmdor vakillari har xil soliq to'lovlaridan foydalangan va o'z oldilarida turgan muammolarni yechishga harakat qilishgan.

Soliqlarning nima uchun zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tishda ikki holat bilan ta'riflash mumkin: birinchisi, davlatlarning qator vazifasini mablag'lar bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchisi, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari asosida. Davlatlarning bajaradigan funksiyalari hamda vazifalari ko'p va bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qolib borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatlarning yangi vazifasi paydo bo'ladi. Bularga bizning O'zbekiston Respublikasida ham kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyotining infratuzilmasini (sanoat sohasida, qishloq xo'jaligi sohasida, moliya sohasida) tashkil etish kiradi. Shu yerda davlatning kuchli byudjet-soliq siyosatining tadbirlarini amalga oshirish uchun talabalar, ko'p bolali onalar, pensionerlar, nafaqaxo'rlar va boshqalarni mablag bilan ta'minlash muhimligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni davlat byudjeti hisobidan qoplaydi

hamda ularga boshqa xarajatlarini davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda ham kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etiladi.

Soliqlar va davlat budjeti bir biri bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliqlar davlat budjetning shakllanishida bevosita ishtirok etadi

Davlat soliqlarni budjetni shakllantirish uchun amalga oshiradi, soliqlar ayni bir aniq xarajatlarni qoplash maqsadlariga ega emas, bu ayni bir turdagi daromadlar tushadigan tushumdan amalga oshiriladigan xarajatlar soliqlar bog'liq bo'lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq ayrim hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularni amalga oshirilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o'ynashi mumkin.

Soliqlar birinchi bo'lib davlatning ijtimoiy vazifalarini mablag'lar bilan ta'minlashning zaruriyligidan ishlab chiqiladi. Davlatning oldida turgan barcha vazifalarini bajarishga xizmat qiladi, bu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- aholining kam ma'lum bir qismini (talabalar, nafaqaxo'rlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqalar)ni ijtimoiy-iqtisodiy ximoya qilish;
- mamlakat mudofaasi tizimini ta'minlash;
- mamlakat aholisining erkin mehnat qilish hamda erkin yashash muhofazasini ta'minlash;
- mamlakat ichida uzluksiz iqtisodiy hamda ijtimoiy, madaniy tadbirlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot) amalga oshirish;
- boshqa davlatlar bilan ham iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy aloqalarni o'rnatish;
- bozordagi infrastrukturani yaratish, boshqa tadbirlar hamda ishlarni amalga oshirish uchun.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslar soliqlar va boshqa yig'implardan tashkil topadi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion)**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Soliq tushumlari byudjet barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston byudjet daromadlarining katta qismini umumdavlat

solliqlari, xususan, qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va jismoniy shaxslar daromad solig‘i tashkil etadi.

Shuningdek, soliqlarning o‘z vaqtida undirilishi, soliq bazasining kengaytirilishi, soliq yuki muvozanatini saqlash va soliq tartibotlarining soddalashtirilishi byudjet daromadlarining barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, ayrim sohalarda soliq tushumlari salmog‘ining pastligi, norasmiy iqtisodiyot hajmining kattaligi va soliq ma’muriyatchiligidagi kamchiliklar mavjudligi samaradorlikni pasaytirayotgan omillardandir.

Kelgusida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini yanada oshirish, soliq sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda soliq intizomini mustahkamlash zaruriyati mavjud. Bu esa nafaqat byudjetni barqaror moliyalashtirish, balki iqtisodiy taraqqiyotning uzluksizligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byudjet-soliq siyosati va byudjet tizimi / A. M. Karimov. — Tashkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Davlat byudjeti va soliqlar / M. Sh. Tursunov. — Tashkent: Fan, 2021.
3. Iqtisodiy rivojlanish va soliqlar / N. A. Asimov. — Tashkent: Iqtisodiyot va tashqi savdo vazirligi nashriyoti, 2020.
4. Soliq tizimi: nazariya va amaliyot / N. B. Sultonov. — Tashkent: Iqtisodiy bilimlar, 2018.
5. Byudjet-soliq siyosati va iqtisodiy barqarorlik / O. R. Abdullaeva. — Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022.
6. Global soliq tizimlari va ularning davlat byudjetiga ta'siri / R. P. Xoshimov. — Tashkent: O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy aloqalar universiteti nashriyoti, 2021.
7. Iqtisodiy tahlil va soliqlarning iqtisodiy o‘shidagi o‘rni / S. A. Bunyodov. — Tashkent: Yangi avlod, 2023.
8. Soliq tizimlari: nazariya, amaliyot va istiqbollar / A. J. Turaev. — Tashkent: Iqtisodiy nashr, 2020.
9. O‘zbekiston iqtisodiyoti: rivojlanish strategiyalari / M. J. Mustafoyev. — Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi nashriyoti, 2021.
10. Byudjet-soliq siyosati va uning iqtisodiyotga ta'siri / Z. F. Suyunov. — Tashkent: Iqtisodiy yangiliklar, 2019.